

XXI ASRDA O'RGANILAYOTGAN VA RIVOJLANAYOTGAN JAHON TILLARI

Sherbutayeva Rayhona Kahramon qizi ¹

¹ Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti Ingliz tili fakulteti
Xorij tili va adabiyoti yo'nalishi

Juraquliy.G.R. ²

² Ilmiy rahbar

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:04.01.2025

Revised: 05.01.2025

Accepted:06.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

Samarali
kommunikatsiya, global
o'rganilayotgan jahon
tillari, kasbiy
imkoniyatlar, chet
tillarini o'rganayotgan
inson hayotida tutgan
muhim o'rinlari, chet
tillarning samarasi.

Chet tillarini o'rganish hozirgi davrda judayam muhim va kerakli ta'lim tizimiga aylanib bormoqda. Ushbu o'zlashtirilgan har bir xorijiy tillarning insonlar hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, shuningdek insoniy rivojlanishda ko'rsatgan ijobiy samaralari. Tillarning yaralishi, kelib chiqishi va XXI asrda global tillar qatoriga kirib kelayotgan va o'rganilish o'rni yuqorilashib kelayotgan tillar..

KIRISH. Hozirgi davr talabi bo'lgan va har bir sohada muhim rol o'ynayotgan chet tillarni o'rganishning afzal jihatlari va ko'plab sohalarda ko'rsatayotgan ijobiy ta'sirlari haqida qisqacha mulohaza yuritamiz. Avvalo ma'lumot o'rnida aytadigan bo'lsak, Google'da ma'lumotlar va maqolalarning 90%dan ortig'i ingliz tilidadir qolgan 10%i boshqa barcha tillar ulushiga to'g'ri keladi. Kundan kunga hayotimizning bir bo'lagiga aylanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlar ham avtomatik tarzda ingliz tilidagi so'zlarni ongimizga kirishi va kundalik lug'atimizga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Masalan: "save", "tag", "share", "link", "shopping", "send", "log in", "log out", "copy" va shu kabi Instagram, telegram Facebook tarmoqlarida uchratiluvchi so'zlarni hozirgi yoshlarga tarjimasini

tushuntirib o'tirish shart emas. Ular kundalik hayotda ,shuningdek o'rganilayotgan chet tillarining nafaqat sohalar, ijtimoiy tarmoqlarda va inson hayotida ham tutayotgan muhim o'rni bilan tanishib chiqamiz. Ularning ba'zilar quyidagilardan iborat:

Fikrlash va aqlli rivojlanish: Chet tillarni o'rganish miyaning turli qismlarini faollashtiradi va kognitiv qobiliyatlarni oshiradi. Masalan, muammolarni hal qilish, ijodkorlik va analitik fikrlashni kuchaytiradi. Shuningdek o'rganilgan har bir yangi xorijiy so'r fikrlash doirasini kengaytirib, tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Yangi madaniyatlar va dunyoqarash: Chet tili o'rganish orqali insonlar yangi madaniyatlar va an'analarni tushunib, boshqacha qarashlarni qabul qilish hamda uni tashkillashtirish ya'ni o'rganganlarini atrofidagi insonlarga ham o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu jihatlar odamlar bilan osonroq muloqot qilish va ulardan ko'proq o'rganish imkonini yaratadi.

Kasbiy imkoniyatlar: Ushbu imkoniyat Chet tili ko'nikmalari va insonlarning kasbiy hayotini boyitadi. Xalqaro kompaniyalar va tashkilotlarda ishlash shuningdek ular bilan ravon muloqot qilish imkoniyatlari oshadi, chet tilini bilishning yana bir afzal jihati ko'plab ish beruvchilar boshqa tillarda gapiradigan xodimlarni qidiradi. Ko'plab jahon tillari, masalan, Ingliz, rus, fransuz, ispan, nemis, hind va boshqalar.

Sayohat qilish imkoniyatlari: Sayohat qilishda avvalambor tashrif buyirilarigan davlatning davlat tili bilish darajasi muhim ahamiyatga ega. Chet tilini bilish sayohat qilishda insonlarga katta yordam beradi. Har bir musofir ya'ni chet elga tashrif buyurgan inson tillarni bilgan holda chet elda o'zingizni xavfsiz, qulayroq va ishonchliroq his qiladi, yangi joylarni o'rganish va odamlar bilan muloqot qilish osonlashadi.

Samarali kommunikatsiya: Ushbu imkoniyat insonlarga moliyaviy jihatdan ham ko'malkashadi. Shuningdek chet tili o'rganish orqali boshqa madaniyatdagi odamlar bilan samarali va aniq muloqot qilish o'rganniladi. Shu bilan birlikda tilni yaxshi biladigan shaxslarning o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalashiga hamda ularni amalda ham erkin bayon qilishlariga yordam beradi.

Yangi imkoniyatlar va tarmoqlar yaratish: Jadal rivojlayotgan hamda texnika va texnologiya davriga aylanib borayotgan ushbu asrda yaratilgan har bir loyihalarda chet tillarni bilish global tarmoqlarni ochadi, ya'ni nafaqat o'z mamlakatida balki xorijiy davlatlar bilan ham erkin hamkorlik qilish imkoniyatlari yuqori, shuningdek yangi ish, ish joylari va hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi.

Shaxsiy o'sish va o'zini anglash: Chet tili o'rganish shaxsiy o'sishga yordam beradi, yangi yondashuvlarni qabul qilish va o'zingizni boshqacha tarzda ifodalash ya'ni qisqa va lo'nda mulohaza orqali fikrni yetkazib berish o'rganiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlarimizning har biri inson haoyitda muhim jihatlar hisoblanadi endilikda tillarning kelib chiqishi va bizgacha yetib kelgan jahon tillari haqida mulohaza yuritamiz.

Chet tillarni o'rganish, nafaqat professional rivojlanishga yordam beradi, balki shaxsiy hayotingizda ham ijobiy o'zgarishlar yaratadi. 21-asrda rivojlanayotgan va jahon tiliga aylanishi mumkin bo'lgan tillar haqida gaplashadigan bo'lsak, bir necha faktorlar — iqtisodiy kuch, texnologik taraqqiyot, madaniy aloqalar va migratsiya — alohida rol o'ynaydi. Keling quyida ba'zi tillardan so'z yurib ular haqida tanishib chiqamiz.

Shuningdek bu haqda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 19.05.2021 yildagi 312-sonli qarori.

1. Ingliz tili – Hozirgi vaqtda ingliz tili global kommunikatsiya, ilm-fan, biznes va madaniyat sohalarida dominant tildan biri hisoblanadi. U texnologiyalar va internetning rivojlanishi bilan yanada kengroq tarqaldi va o'zgarishlarga moslashgan.

2. Mandarin (Xitoy tili) – Xitoy iqtisodiyoti o'sib borishi bilan, mandarin tili ham global ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda. Xitoyning iqtisodiy va siyosiy ta'siri tufayli bu tilning ahamiyati ortmoqda.

3. Spanish (Ispan tili) – Ispaniya va lotin amerika mamlakatlarining o'sib borayotgan ta'siri, shuningdek, ispan tilini global miqyosda ommalashtirmoqda. Tillar orasida eng ko'p so'zlashadigan tillardan biri bo'lib, uning yirik miqdorda so'zlashuvchilari bor.

4. Arabic (Arab tili) – Arab dunyosining siyosiy va iqtisodiy muhimligi, shuningdek, islom dinining global ahamiyati arab tilining tarqalishiga yordam beradi. Bu til Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va ba'zi boshqa hududlarda keng tarqalgan.

5. Hindi – Hindistonning iqtisodiy o'sishi va aholisining ko'payishi, shuningdek, hind tilining Bollywood madaniyatiga ta'siri hind tilining jahon tiliga aylanishiga yordam beradi.

6. Russian (Rus tili) – Rossiya va uning ta'sir doirasidagi hududlarda rus tili hali ham muhim rol o'ynaydi. Sovet Ittifoqining qulashidan so'ng ham, rus tili ko'plab sobiq ittifoqqa kirgan davlatlarda ishlatiladi. Texnologiyalar, internet va globalizatsiya bu

tillarning ko'proq tarqalishiga sabab bo'lmoqda, va ular XXI asrda jahon tiliga aylanishi mumkin. Xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga birlashtirilgan oliy ta'lim muassasalariga xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasasi etib belgilansin va ularda Agentlikning hududiy vakilliklari joylashtirilsin.

7. Quyidagilar xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin: o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish gapirish) rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan oliy ta'lim muassasalarining xorijiy tillar kafedralarini biriktirish orqali o'quvchilarning xorijiy tillarni chuqur o'rganishini tashkil etish;

O'quvchilarni xorijiy tillarga o'qitish va ularning bilimlarini baholashning xalqaro tan olingan uslublarini joriy qilish, shu jumladan ta'lim jarayonida masofaviy va boshqa zamonaviy ta'lim shakllarini keng qo'llash hamda boshqa fanlarni xorijiy tillarda o'qitish;

O'quvchilarning kamida ikkita xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishi orqali ularning dunyoqarashi kengayishi, salohiyati oshishi hamda mehnat bozorida raqobatbardoshligi oshirilishini ta'minlash.

8. Quyidagilar xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari etib belgilansin. O'quv jarayonini metodik qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning asosiy til ko'nikmalarini mustahkamlash va qo'llashda ko'maklashish, shu jumladan ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish. Ta'lim jarayoniga malakali professor-o'qituvchilar va iqtidorli talabalarni jalb qilish choralarini ko'rish hamda ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil qilish;

Xorijiy tillarga o'qitish kurslari va to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida ko'rik-tanlovlar va olimpiadalar tashkil etish.

Ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktiriladigan oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablarda xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirishga oid xarajatlari ushbu tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplansin.

Ushbu keltirilgan qaror amalda qo'llanilib samarali natijalarga erishilmoqda.

O'qib o'rganilayotgan va rivojlanayotgan har bir fan, soha va har bir xorijiy til insonni ham aqlan va jismonan yetuk bo'lishida katta o'rin kasb etadi. Shunday ekan erkin haq huquqlarimizdan ega bo'lgan ushbu davrda ilm-fan san'at sport sohalarini yetuk mutaxassisi bo'lish va o'rganilgan har bir bilimlar to'g'ri yo'naltirilgan mamlakat va millatning kelajagi buyuk va porloqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-5431845?ONDATE=28.08.2024>

2. <https://uzresearchers.com/index.php/IFTE23/article/download/462/416/842>

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jahon_tillari